



BO'LAJAK TARBIYACHILARNI KASBIY METODIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Sultansaidova Mushtariy Abzalxanova

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Maktabgacha ta'lism texnologiyasi kafedrasini o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy metodik kompetensiyalarini rivojlantirish borasidagi qarashlar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: tarbiyachi, kasb, metodik tayyoragarlik, shaxs, vazifa, ta'lism, kompetensiya.

Аннотация: в данной статье анализируются взгляды на развитие профессиональных методических компетенций будущих педагогов.

Ключевые слова: педагог, профессия, методическая подготовка, человек, задача, образование, компетентность.

Abstract: in this article, views on the development of professional methodical competences of future educators are analyzed.

Key words: educator, profession, methodical training, person, task, education, competence.

Maktabgacha ta'lism tizimi uzlusiz ta'larning boshlanishi, birlamchi asosiy qismi hisoblanadi. Bolalarning sog'lom, ma'nан yetuk va bilimli kadr bo'lib yetishishlarida maktabgacha ta'lism va tarbiya muhim rol o'ynaydi. Shu nuqtai nazardan maktabgacha ta'lism soihasini isloq qilish borasida bir qator meyoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunday islohotlarning natijasida albatta bo'lajak tarbiyachilarga bir qator ma'suliyat yuklashi tabiiy. O'z kasbining mukammal egasi va yetuk kadr bo'lish talabini qo'yadi. Davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilinayotgan me'yoriy –huquqiy hujjatlar faqatgina maktabgacha ta'lism tizimi va tarbiya sohasi faoliyatini huquqiy himoyalash bilan emas balki ushbu sohani yanada rivojlantirish va maktabgacha ta'lism tizimi hodimlarini salohiyatini yanada oshirishga undaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'bekiston strategiyasi" kitobida maktabgacha ta'lism tizimini "inson kapitali" tushunchasi bilan bog'lab tushuntiradi. "Rivojlangan mamlakatlarda ta'limning to'liq sikliga investitsiya kiritishga, ya'ni, bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e'tibor beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa bu ko'rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etadi. Binobarin, inson kapitaliga



e‘tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart”¹-deb ta’kidlaydi.

Ko‘rinib turibdiku ushbu vazifalarni amalgalashda bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy metodik kompetensiyasining ahamiyati kattadir. Metodik tayyorgarligi yuqori bo‘lgan tarbiyachi ish jarayoni muammolarga kam duch keladi. Buning uchun bo‘lajak tarbiyachi innovatsion ta’lim texnologiyalariga ega bo‘lishi va undan to‘g‘ri foydalana olish taktikasiga ega bo‘lishi lozimdir. Bo‘lajak tarbiyachining o‘quv davri mobaynida o‘z ustida ishlashi uning dastlabki tajribasini shakllantiradi. Mutaxassisning muvofaqiyati uning o‘z ustida qay darajada ishlagani va bilimlarni o‘zlashtirgani bilan belgilanadi.

Bo‘lajak tarbiyachilarning pedagogik ta’limda fanlarning uzlusizligini amalgalashning dolzarbligi bir qator holatlar bilan bog‘liq. Gumanitar va kasbiy tarkibiy qismlarning o‘zaro bog‘liqligi, pedagogik fanlarning maxsus fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi, mutaxassisning kasbiy metodik va pedagogik kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan umumiy kasbiy va pedagogikaning integratsiyasi oliy pedagogik ta’limni takomillashtirish va rivojlantirishda hamon dolzarbdir. Bo‘lajak tarbiyachilar faqatgina bilim olish bilan emas muntazam o‘z ustida ishlashi hamda doimiy harakatda nazariya va amaliyot birligini ta’minalashga intilmog‘i lozim. Talabalar yangi ta’lim tizimiga moslashishi ya’ni zamonaviy ta’lim texnologiyalarining egallashi kelajakda tarbiyachining zamonaviy maktabgacha ta’lim tizimiga kirishiga va oson moslashishiga imkon beradi.

Bunda albatta oliy ta’lim tizimida ham maktabgacha ta’lim tizimida ham o‘quv jarayonlarini yangilash zamon talablariga moslashtirish zarur. Talaba oliy ta’limda olgan bilimini maktabgacha ta’lim tizimida ham qo‘llay olishi ya’ni dasturlar bir-birini to‘ldirishi zarur. Qozog‘istonlik tadqiqotchi L. Savinkov o‘zining ilmiy izlanishlarida ta’limni rivojlantirish borasida uzlusizlikni ta’minalash asosiy omil ekanini ta’kidlaydi. Ya’ni uning fikricha “Uzlusiz tizimli ta’lim- ta’lim tizimini rivojlanishining asosiy shartlaridan biridir”. Fanlar o‘rtasida ham uzlusizlik bir-birini to‘ldira oladigan va bir-biriga mutanosib bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi².

Kasbiy metodik kompetensiyasini rivojlantirishning asosiy maqsadi bo‘lajak tarbiyachilarda kasbiy mahorat, ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, muomala madaniyati, pedagogik texnikani egallash va rivojlantirish, o‘qituvchilik mahoratining dastlabki salohiyatini tarkib toptirishdan iborat ekani, pedagogik mahorat kuzatuvchanlik, ijodkorlik, ilg‘or pedagogik tajribalarni mustaqil o‘zlashtirish sirlarini o‘rgatish, o‘qish va o‘qitish jarayonida diqqatni taqsimlash, bilim, ko‘nikma va

¹ Мирзиёев III.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент.: Ўзбекистон. 2021. 23-6.

² Savinkov L. 2006. Continuity in management of gymnasium educational process. Abstract of the thesis of the Doctor of pedagogical sciences. p. 46. Magnitogorsk.Russia.

malakalar, psixik holatlarini boshqara olish kompetentsiyalarini rivojlantirishdan iborat.

Bo'lajak tarbiyachilarning shaxsiy rivojlanishi, ularning o'z kasbiga bo'lgan qiziqishlarining yo'nalganligi, mustaqil fikrplashlari, faolliklari hamda dunyo qarashlarining turg'unlashuvi va o'zini-o'zi tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojlarining shakllanishi kabi holatlar bilan tavsiflanadi. Bo'lajak yosh pedagog uchun oliy ta'lim muassasasida ta'lim olish jarayoni pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishda kasbiy jihatdan ahamiyatli sanalgan bilim, ko'nikma, malaka va sifatni shakllantirish, rivojlantirish hamda o'zini-o'zi takomillashtirishning eng muhim davridir.

Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy metodik kompetensiyasini rivojlantirishning innovatsion yondashuvini empirik tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasasida bo'lajak tarbiyachilarning innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun tegishli shart-sharoitlar yaratilgan. Bo'lajak tarbiyachilar kasbiy metodik kompetensiyasini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlarning yuqori darajada dolzarbligini anglab yetadi, o'z faoliyatini innovatsion texnologiyalarni samarali qo'llash, ilm-fanning yangi yutuqlarini hisobga olgan holda, uni amalga oshirishga intiladi. Shu bilan birga, ularning kasbiy faoliyati hali tizimli xarakter kasb etmagan, ular o'qitish sohasida yetarlicha bilimlarga ega emas, demak amalga oshirilayotgan innovatsion faoliyat odatda ta'lim jarayoniga jamlangan, bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy faoliyatini o'zi tahlil etish malakasi oshishi, ularning yangiliklarga nisbatan qarashlari, yo'nalishlari, munosabatlarining o'zgarishi, innovatsion nuqtai nazari shakllanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ишмуҳамедов Р., Юлдашев М. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар. Таълим тизими ходимлари, методистлар, ўқитувчилар, тарбиячи ва мураббийлар учун ўқув қўлланма. – Тошкент, 2013. – Б.277. – Б.11-12.
2. Гайназарова Г.А. Мактабгача таълим муассасаси тарбиячиларининг педагогик маҳоратини ривожлантириш йўллари. // Халқ таълими. – Тошкент, 2018. -№5. –Б.92-97.
3. www.natlib.uz – O'zbekiston Milliy kutubxonasi rasmiy veb sayti
4. Abzalhanova, S. M. (2024, March). KASBIY-METODIK KOMPETENSIYA TUSHUNCHASI. In Proceedings of International Educators Conference (Vol. 3, No. 3, pp. 78-81).
5. РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ ИГРУШЕК И КУКОЛ В ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ ДХ Садикова, ИН Головченко Лучшие интеллектуальные исследования 9 (1), 14-21 1 2023

6. Камолова, Г. (2024, March). ИНТЕГРАТИВ ЁНДАШУВ АСОСИДА БЎЛАЖАК ТАРБИЯЧИЛАРНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ЖИҲАТЛАРИ. In Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies (Vol. 3, No. 3, pp. 197-204).

7. Abzalxanovna, S. M. (2024, March). BO 'LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY METODIK KOMPETENSIYALARI MOHIYATI. In Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies (Vol. 3, No. 3, pp. 185-189).

8. Xalilova Dilnoza Furqatovna. "Maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lajak tarbiyachilarining ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirish ". Ta'lim sifati – Yangi O'zbekiston taraqqiyotini yanada yuksaltirishning muhim omili, Qo'qon 21 iyun 2023 yil. 677-679.

9. Намазбаева, Л. З. (2023). Экологическое образование и мировые рейтинги: как защита окружающей среды влияет на уровень познавательных навыков детей. Science and innovation, 2(Special Issue 13), 258-262.

10. SHeraliyevna, O. X. (2024). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI SUHBAT QURISH O 'RGALI NUTQINI O 'STIRISH USULLARI. Лучшие интеллектуальные исследования, 17(4), 82-85.